



TARJIMA TARIXI VA UNING BADIY ADABIYOTDAGI O'RNI

Aliyeva Baxtiniso Botir qizi

Termiz iqtisodiyot va servis universiteti magistranti
<https://doi.org/10.5281/zenodo.10279277>

ARTICLE INFO

Qabul qilindi: 01-December 2023 yil
Ma'qullandi: 04- December 2023 yil
Nashr qilindi: 07- December 2023 yil

KEY WORDS

*tarjima, tarjimashunoslik,
tarjimashunoslik maktablari.*

ABSTRACT

Ushbu maqolada tarjima, unga berilgana'riflar, tarjimaning tilshunoslikda, xususan adabiyotshunoslikda tutgan o'rni, kelib chiqish tarixi o'rganilgan.

Bejizga yurtboshimiz "Adabiyot, san'at va madaniyat yashasa, millat va xalq, butun insoniyat bezavol yashaydi" [1] deya ta'kidlab o'tmagan. Badiiy tarjima va tarjimashunoslik uzoq asrlardan buyon shakllanib, sayqallanib kelayotgan ko'hna ijodiy sohalardan biri desak bo'ladi. Hozirgi kunda tarjimaning ahamiyati haqida gapirish, suvning inson hayotida tutgan beqiyos o'rnini gapirishga tengir, chunki adabiyotsiz insoniyat yashay olmaydi. Bejizga Cho'lpon ham "Adabiyotsiz kelajak yo'q" demagan.

Badiiy tarjima bu - asarlarning bir tildan ikkinchi tilga o'girish jarayoni deb tushunishimiz mumkin. Badiiy tarjimaning xususiyati shundaki, uning tili o'zgarsa ham, estetik hodisasi, badiylik voqeasi va his-tuyg'ulari saqlanib qolinadi. Xo'sh bu tarjimachilik faoliyati qachon boshlandi; Qadimda O'rta Osiyo va Eronda notiqnlarni "tarzabon" deb ataganlar. "Tar" - fors tilida yangi, nozik, latif degan manolarni anglatadi. "Zabon" esa - til deganidir. Tarjima O'rta Osiyoda ham oldindan rivojlanib kelgan Abu Nasr Forobiy, Mahmud Qoshg'ariy va Ibn Sino ham bu sohani rivojlanishiga hissalarini qo'shishgan. Ular o'z asarlarini arab, fors va hind tillarida yozishib boshqa tillarga tarjima qilganlar.

Ikki ming yil muqaddam Yunon faylasufi Liviy Andronik Gomerning "Odisey" [2] asarini lotin tiliga o'giran va shundan boshlab badiiy tarjima faoliyati rivojlanib kelmoqda. Tarjima deganda shunchaki ko'chirish degani emas, mukammal tarjimon til bilan birga badiiy ifoda, his-hayajon va mehr-muhabbat iforlari bilan birgalikda olib o'ta olishi kerak. Bu soha nafaqat Angliya va Fransiyada, balki Germaniya va boshqa G'arbiy davlatlarda juda rivojlandi va bu kitobxonlarga o'zlarining tilida o'qiy olishiga katta imkoniyat yaratdi. Xususan, Avstriyada Yuris Virgl nemis tilida tarjimashunoslik problematikasiga oid monografiyasini ishlab chiqdi.

Badiiy tarjimashunoslik sohasi bo'yicha O'zbekistonda ham qator yangilanishlar va diqqatga sazavor o'zgarishlar bo'ldi. O'zbekiston Markaziy qo'mitasi 1965 - yili chiqargan qaroridan so'ng bu sohada tubdan o'zgartirishlar sodir bo'ldi. Shuni faxr bilan aytishimiz kerakki, o'zbek markasi bilan chiqayotgan

kitoblar dunyoning 97 mamlakatida shu bilan birga qator rivojlangan davlatlar Aqsh, Germaniya, Xitoy, Kanada va Italiya davlatlarida o'zlarining ona tillarida o'qimoqdalar. Yurtimizda qisqa vaqt ichida yirik badiiy asarlar tarjimai yaratildi va ko'plab olimlar va tarjimashunoslar o'z hissalarini qo'shishdi, shu jumladan, Jummaniyoz Sharipov "O'zbekistonda tarjima tarixidan" va "Badiiy tarjimalar va mohir tarjimonlar", Q.Musayev "Badiiy tarjima va nutq madaniyat" nomli kitoblarni yaratgan. Bugungi kunga kelib o'zbek tarjima maktabi jahon tarjimashunoslik ilmida tan olindi. O'zbekiston mustaqilligini qo'lga kiritgandan so'ng tarjimashunoslik sohasiga keng eshiklar ochildi.

Badiiy tarjimaning o'zbek va jahon adabiyotida o'rni juda beqiyosdir. Tarjima sohasi tufayli ko'plab kitobsevar yoshlar va kattalar birdek bahramand bo'libgina qolmay, balki o'zlariga kerakli ma'lumotlarni o'rganishmoqda. Tarjima sohasi tufayli insonlar o'zlarining madaniyat va urf-odatlarini dunyo bo'ylab ulashmoqda va boshqalarnikidan birdek xabardor bo'lishadi. Tarjimondan nafaqat til bilimdoni, balki boshqa davlatlarning urf-odati va marosimlaridan ham xabardor bo'lish talab etiladi chunki muayyan mamlakatning bu jihatlarini bilmay turib tarjima qilinsa qaysidir vositlari to'g'i kelmasligi mumkin bu degani tarjimashunoslik muhim va mehnat talab etiladigan sohadir.

Tarjimaning olamshumul miqyosda taraqqiy etishiga sabab qilib qadimgi Buyuk Ipak Yo'li va Buyuk Geografik kashfiyotlarni ham keltirgan bo'lardim. Zero aynan shular tufayli odamlar uzoq o'lkalarga sayohat qila oldilar. Oldin ko'rmagan, bilmagan millatlar va elatlar bilan yaqindan muloqot o'rnatib, ular bilan savdo, madaniyat va ilm-fan sohasida aloqalar o'rnatdilar. Shu o'rinda aytib o'tishim joizki, Buyuk Geografik Kashfiyotlar hamkorlik va muloqotdan ko'ra ko'proq istibdod va qulchilikka xizmat qildi, afsuski.

Zamon rivojlangani sayin mamlakatlar o'rtasidagi masofalar qisqarib bordi va millatlararo aloqalar osonlashib bordi. Tabiiyki, tarjima va tarjimonlik ham shunga mutanosib tarzda rivojlandi. Tarjimaning o'zi ham turli sohalarga bo'lindi va har bir soha alohida uslub va tajriba talab qila boshladi.

Tarjimaning alohida sohalaridan biri bu izchil tarjima bo'lib, unda tarjimon hech qanday yordamchi vositalarsiz, mutlaqo o'zining bilimi va qobiliyatlariga suyanadi. Prezidentlar o'rtasidagi muloqotga hech e'tibor berganmisiz? Prezident biror boshqa davlat rahbari bilan yakkama yakka muloqot o'tkazganda, o'rtalarida albatta tarjimon bo'ladi. Shu tarjimon yuksak darajada bilimli mutaxassis bo'lishi shart, zero bunday holatda hatoga o'rin yo'q.

Yurtimizda yoshlarni bu sohaga jalb qilish uchun qator imkoniyatlar ochilmoqda, jumladan Toshkent davlat sharqshunoslik insituti, O'zbekiston jahon tillari universiteti va Samarqand davlat chet tillar instutlarida shakllangan yosh tarjimonlar maktablarining faoliyatlarini boshlaganliklari yaqqol misol bo'la oladi. Xususan, Presidentimiz Shavkat Mirziyoyevning "O'zbekiston respublikasida xorijiy tillarni o'rganishni ommalashtirish sifat jihatdan yangi bosqichga olib chiqish chora tadbirlari to'g'risida"gi qaroriga muvofiq "Davlat tilidan xorijiy tillariga va xorijiy tilardan davlat tiliga professional tarjima qilish uslubiyatlarini yaratish hamda ushbu yo'nalishda mutaxassislarning malakasini oshirishda ko'maklashish" [3]ni misol sifatini olishimiz mumkin.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, tarjima insoniyat faoliyatining eng qadimiy turlaridan biri bo'lib, u tufayli biz insoniyat tarixining barcha tafsilotlarini ochiqoshkora o'rganamiz. Hech bir xalq o'z qobig'ida, o'z-o'zicha rivojlana olmaydi. U boshqa xalqlarning yutug'i, kamchiligi,

tajribalarini o'zlashtirgan holda yuksaladi. Bu jarayonni amalga oshirish uchun esa albatta tarjima, tarjimashunoslik ilmiga bo'lgan ehtiyojni sezamiz. Tarjima tarixini o'rganish jamiyatda ko'p asrlar ilgari mavjud bo'lgan madaniyat va sivilizatsiyalar haqida bilish imkonini beradi. Hozirgi kunda tarjima biz uchun suv va havodek zarur, chunki ta'lim jarayonida, savdo- sotiq ishlarida, diplomatik munosabatlarda va madaniy aloqalarda tarjimaning ahamiyati muhimdir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining tarjima va adabiyot haqida aytgan fikrlari.
2. Hamidov.X.X. Tarjimashunoslik matnlari (o'quv qo'llanmasi). Toshkent 2012 .
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 19-maydagi PQ5117 qarori.
4. Turaeva, U. (2021). COMPARATIVE STUDY OF UZBEK AND ENGLISH LEGAL TERMS LEGAL LINGUISTICS: HISTORICAL FOUNDATIONS, BASIC CONCEPTS AND ASPECTS. Berlin Studies Transnational Journal of Science and Humanities, 1(1.6 Philological sciences).
5. UMIDA, T. Characteristics, Methods and Challenges of Translating Law Terminology. JournalNX, 6(11), 312-316.
6. To'rayeva , U. (2023). THE ORETICAL AND PRACTICAL BASIS OF TRANSLATION OF TERMS. Scientific Journal of the Fergana State University, 29(4), 64. Retrieved from <https://journal.fdu.uz/index.php/sjfsu/article/view/2758>
7. Turakulova, P., & Turaeva, U. (2023). THE MAIN METHODS OF WRITING COMPLAINT LETTER. Центральнoазиатский журнал образования и инноваций, 2(11 Part 2), 112-114.
8. Абдиназаров, У. (2023). INGLIZ VA O 'ZBEK TILLARIDA GIPPOLOGIK TERMINLARNING LINGVISTIK TADQIQI. Ижтимоий-гуманитар фанларнинг долзарб муаммолари/Актуальные проблемы социально-гуманитарных наук/Actual Problems of Humanities and Social Sciences., 3(9).
9. Qushoqovich, A. O. K. (2022). O'ZBEK TILIDA YILQICHILIKKA OID TERMINLARNING O'RGANILISHI. Journal of new century innovations, 18(1), 37-40.